

## FAOLIYAT HAQIDA TUSHUNCHA

Mirzayeva Shahnoza Shavkat qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada faoliyatning muhim xususiyatlari va inson hayotidagi tutgan o'рни haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *faoliyat, faollik, faol, motiv, maqsad, harakat, moyivatsiya, umumiy psixologiya.*

Odam tabiati jihatidan faol mavjudod hisoblanadi. U ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p hisoblanadi, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish, mehnatdir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. Har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishga qaratilgan bo'ladi. Atrof muhit ijtimoiy vaziyatlar insonda umuman olganda tirik organizmlarda faollik tug'diradi.

Agar hayvonlarni hatti-harakati bevosita atrof-muhit bilan belgilansa, odamning faolligi yoshlik davridanoq, butun insoniyatning tajribasi va jamiyat talabi bilan boshqariladi. Shu sababli "faoliyat", "faollik", "xatti-harakat" tushunchalarning mazmunini anglash lozim.

Yuqorida aytilganidek "faoliyat", "faollik", "xatti-harakat" tushunchalarining mazmunini anglashimiz kerak. Biz faoliyatni "faollik" va "harakatsiz" tasavvur qila olmaymiz. Chunki bu tushunchalar bir-biriga chambachas bog'langandir. Tushunib yetganimizday faollik bo'lmasa faoliyat bo'lmaydi. Harakat va faollikning tub mazmuniga keladigan bo'lsak. Harakat-maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravshda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak uyda biron-bir ish bilan shug'illanishimiz oddiy bir idishni bir joydan, boshqa joyga ongli ravishda yo'naltirilgan ishi va bundagi maqsadimiz suv ichish yoki uni tozalash va hakazo bo'lishi mumkin. Endi faollikka to'xtaladigan bo'lsak, faollik-shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarni namoyon etishni tushuntiruvchi kategoriyadir. Bir so'z bilan aytganda faoliyat bo'lishi uchun ham bir nechta faollik bo'lishi kerak. Bunga misol qilib biz bir taom pishirmoqchimiz uni pishirishdan oldin bir nechta faollikni amalga oshiramiz sabzavot tozalaymiz, uni shakllar berib to'g'raymiz va hakazo. Umumiy taomni pishirishimiz esa bitta faoliyat bo'ladi.



Yana bulardan tashqari, faoliyatning interiorizatsiya va eksteriorizatsiya kabi turlari ham bordir. Tashqi olam ya'ni buyumlardagi faoliyatni oldindan payqab olishimiz mumkin. Obekt ya'ni biror-bir narsa ustida qilinadigan aniq ishlar bu obektlarning muhim xususiyatlari ustida qilinadigan harakatlar, ya'ni ideal ( psixik ) ishlar bilan almashiladi. Boshqacha qilib aytganda narsalar bilan jismoniy tarzda qilinadigan ishlar shu narsalarning mazmuni bilan almashinadi. Tashqi real ishdan, ichki ideal ishga mana shunday o'tib sh jarayonini interorizatsiya deb yuritiladi. Inson psixikasi interiorizatsiyasi tufayli ayni paytda ko'z o'ngida yo'q bo'lgan narsalarning obrazlari bilan ishlay bilish qobiliyatiga ega.

Inson faoliyati xilma-xildir. Unga misol qilib mehnat faoliyati, badiiy-ijod faoliyatlarini ko'rsatsak ham bo'ladi. Faoliyat dunyoni ongli aks ettirilishida namoyon bo'ladi. Bundan bilsak bo'ladiki barcha faoliyat turlari tarkibida uchta tarkibiy qism bo'ladi. Bular: maqsad-motiv-harakatdir. Yuqorida aytganimizdek harakat navbatdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangandir. Maqsadga to'xtaladigan bo'lasak: Maqsad-inson faoliyati so'ngi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi va ehtiyojlarni amalga oshirilishidir.

Faoliyatning eng asosiy tarkibiy qismi bu motivdir. Motiv— kishini faoliyatiga undaydi, unga mazmun baxsh etadi. Motivlar yig'indisidan esa motivatsiya hosil bo'ladi. Motivatsiya odamlarni faol faoliyatga undovchi sabablar mavjuddir. Faoliyatning asosiy turlariga keladigan bo'lsak uchta turdan iborat.

Bular: ta'lim faoliyati, o'yin faoliyati, mehnat faoliyati.

A. V. Petrovskiy "Umumiy psixologiya" darsligida faoliyat kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turdigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir degan edi. Bundan tashqari, M. G. Davlatshin muallifidagi chop etilgan "Psixologiya" kitobining lug'atida: "Faollik-tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir shu asosida faollik ko'rsatish bilan tavsiflanadi"-deya ta'riflagan.

Faoliyat-insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligidir. Q. Turg'unovning "Psixologiya" asarida: "Faollikni shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zlashtirishga qartilgan muhim qobiliyatdir faollik ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lib, kishining faoliyati mehnat, o'qish, o'yin, ijtimoiy hayot, sport, ijod kabilarda yaqqol namoyon bo'ladi"-deb ko'rsatadi. Faoliyatning ham o'ziga xos xususiyatlari bor.



Masalan; inson faoliyatida bilishga va muloqatga boʻlgan ehtiyojlar bilan yoʻnaltirilganligi, tajribani berish va oʻzlashtirish muloqotning ijtimoiy vositalari yoki moddiy madaniyat mahsulotlari orqali amalga oshiriladi, oʻz ehtiyojlariga muvofiq tarzda tashqi dunyoni oʻzgartiradi. Bu xususiyatlar inson faoliyatidagi oid xususiyatlar inson faoliyatiga oid xususiyatlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda faoliyat anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki va tashqi harakatlar yigʻindisiga aytiladi. Faoliyat-inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va oʻz-oʻzini oʻzgartirish va takomillashtirishga qaratilgan oʻziga xos faollik shaklidir. Inson tirik ekan faollik va faoliyatdan hech qachon toʻxtamaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya
2. Gʻoziyev E “Umumiy psixologiya” 1-kitobi Toshkent 2004
3. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA OʻSMIRLARNING SOGʻLOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
4. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QOʻLLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING OʻZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 418-421.
5. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOGʻLOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 32-35.
6. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
7. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi–jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
8. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. Results of National Scientific Research International Journal, 2(3), 156-161.
9. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции



психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.

10. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.

11. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.

12. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

13. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.

14. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.

15. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.

16. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.

17. Imanov, B. B. (2023). O'QUVCHILARNING TABIATDA SODIR BO'LAYOTGAN FIZIK JARAYONLARNI ANGLAB ETISHDA TAJRIBALARNING O'RNI. Interpretation and researches, 2(1).

18. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

19. Imanov, B. B. (2021). Competences in the quality of education and their organization. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 419-424.

20. Imanov, B. B. (2021). Lesson and its analysis as factor of increasing the qualiyy of education. European scholar Journal. Available online at//www.scolarzest.com, 1.

21. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI



SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

22. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIRI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).

23. Ne’Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O ‘YIN TERAPIYASINI QO’LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.

24. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.

25. Ne’matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo’llashda innovatsion usullar. O ‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 1(6).

26. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).

27. Неъматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.

28. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o’yin terapiyasining ahamiyati . Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43–46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>

29. qizi Ne’matullayeva, S. X., & Ulug’bek qizi Abduqahhorova, M. (2023). BOLA SHAXSINING RIVOJIDA O ‘YIN TERAPIYASINI QO ‘LLASH SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 341-344.

30. Ne’matullayeva, S. (2022). PERSPECTIVES ON THE USE OF PLAY THERAPY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Science and Innovation, 1(4), 444-449.

31. Норбошева, М. А. (2023). КЛАССИФИКАЦИЯ МОТИВОВ УЧЕНИЯ. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 255-258.

32. НОРБОШЕВА, М. А. (2020). Отражение Национальных Ценностей В Национальных Играх. ECLSS Online 2020b, 312.

33. Нарбашева, М. А. (2021). Развитие компетентности у педагога дошкольных образовательных организаций. Наука и образование сегодня, (7 (66)), 65-66.

